



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 11-dekabr, № 259 (9154)

Payshanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



E'TIROF VA E'TIBORGA MUNOSIB ZAHMATLI MEHNATNING ULKAN NATIJALARI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ko'ksaroy qarorgohida Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni
arafasida soha vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.



Davlatimiz rahbari so'zining avvalida fidokorona va mashaqqatli mehnati bilan noz-ne'mat yetishtirib, el dasturxoniga qut-baraka olib kirayotgan barcha dehqon, fermer, bog'bon, chorvador, suvchi, agronom va mexanizatorlarga o'zining chuqur hurmat-ehtiromini bildirdi.

— Sizlarning nafaqat qishloq xo'jaligi, balki iqtisodiyotni yuksaltirish, aholi turmushini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi beqiyos ishlaringiz har qancha tahsinga sazovor, — dedi

Prezidentimiz.

Joriy yilda xalqimizning 3,5 milliondan ziyod vakillari mehnat qilayotgan qishloq xo'jaligida katta marralarga erishildi. Paxtachilikda mirishkor dehqon va fermerlarimiz tomonidan 875 ming gektar yerda 4 million tonnaga yaqin xirmonlar yaratildi. Ilk bor paxtada o'rtacha hosildorlik 46 sentnerga yetdi.

G'allakorlarimiz bu yil 8 million 400 ming tonna xirmon yaratdi, o'rtacha hosildorlik esa 85 sentner bo'ldi. Sholikorlarimiz joriy yil 268 ming

gektarda sholi ekib, 1 million 340 ming tonna hosil oldi, o'rtacha hosildorlik 50 sentnerga yetdi.

Uch yilda 155 ming gektar bog' va uzumzor barpo etildi, intensiv bog'lar 150 ming gektarga yetkazildi. Joriy yilda 3,4 million tonna meva, 2 million tonna uzum, 19,5 million tonna sabzavot, poliz va kartoshka, 1 million tonna dukkakli va moyli ekinlar yetishtirildi.

Yil boshidan oziq-ovqat eksporti 37 foizga o'sib, 3 milliard dollarga yetdi, yil yakuni bilan bu ko'rsatkich

ilk bor 3,2 milliard dollardan oshadi. Meva-sabzavotlarimiz kirib borgan davlatlarning soni 18 taga ko'payib, 83 taga yetdi.

— Albatta, bunday ulkan natijalar ortida dehqon va fermerlarimiz, klasterlar, umuman, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi har bir insonning mehnati, jasorati, fidoyiligi turibdi, desak, to'g'ri bo'ladi. Ularning zahmati, mard va oliyanob fazilatleri har qancha e'tirof va e'tiborga munosib, — dedi Prezidentimiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 9-dekabrda Farmoniga muvofiq, sohada alohida o'nak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhi faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Marosimda ana shu mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Prezidentimiz so'zining davomida kelgusi yil uchun soha oldida turgan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Yangi agrotehnologiya yordamida 76-sxema bo'yicha paxta yetishtirish

kelgusi yilda ommalashtirilib, 891 ming gektarda to'liq shu sxema bo'yicha paxta yetishtiriladi. Ko'sak qurti, gerbitsid, sho'r va suvsizlikka chidamli xorijiy navlar ekiladigan maydonlar 2 karra ko'paytirilib, 500 ming gektarga olib chiqiladi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

KOMPLAYENS NAZORAT, RAQAMLASHTIRISH VA SHAFFOFLIK — KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUHIM OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-dekabr kuni korruptsiyaga qarshi kurashish, komplayens nazoratini takomillashtirish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar taqdimoti bilan tanishdi.

Korrupsiya — aksariyat jamiyatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga putur yetkazuvchi jiddiy jinoyatdir. Biror-bir mamlakat, mintaq, jamiyat korruptsiyadan immunitetga ega emas. Korruptsiya tadbirkorlikka, fanga, ta'limga, sog'liqni saqlash va boshqa ko'plab sohalarga jiddiy zarar yetkazadi, mamlakat korruptsiyalashgan tizimda muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi.

Yangi O'zbekistondagi islohotlarning boshidanoq bu haqiqatni chuqur anglagan holda korruptsiyaning oldini olish, shaffoflikni oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lami ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ushbu mavzu ayni shu kunlarda muhokama qilinayotgani bejiz emas. Zero, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan 2004-yildan boshlab har yili

9-dekabrda Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni butun dunyoda nishonlanadi. Ushbu sana mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlar samarasini baholash, amaliy natijalarni tahlil qilish va yangi vazifalarni belgilash uchun muhim fursat.

O'tgan davrda davlat organlarida komplayens nazorati tuzilmalarining faoliyati qayta ko'rib chiqilib, ichki nazorat bo'linmalarida 11 mingdan ortiq o'rganishlar o'tkazilgani, 793 milliard so'mlik mablag'larning maqsadsiz sarflanishining oldi olingani ma'lum qilindi. Qariyb 2 trillion so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi, 478 milliard so'mlik zarar qilingandi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tasdiqlangani, ular tomonidan 700 dan ortiq o'rganish, monitoring va nazorat tadbirlari o'tkazilgani

natijasida 354 milliard so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi, 1397 ta manfaatlar to'qnashuvi holati hamda qariyb 550 milliard so'm mablag'ning maqsadsiz sarflanishining oldi olindi. Mansabdor shaxslarga nisbatan 26 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi, 24 nafari ma'muriy va 148 nafari intizomiy javobgarlikka tortildi.

Sog'liqni saqlash, maktabgacha va maktab ta'limi, kadastr va qurilish tizimlari hamda davlat xizmatchilari orasida korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, kadrlarni ishga olishda shaffoflikni ta'minlash, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv kurslarida o'qitish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Korruptsiyaga qarshi

kurashish klasterini yo'lga qo'yish taklif etildi. Bu tizim Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Hisob palatasi va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, idoralarning ichki nazorat bo'linmalari, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida mazkur illatga qarshi kurashish bo'yicha yaqin hamkorligini o'rnatish va ularning sa'y-harakatlarini birlashtirishga xizmat qiladi.

Klaster doirasida axborot almashish, qo'shma tadbirlar o'tkazish, monitoring va baholash orqali yaxlit ekotizim yaratiladi, ishlarning samaradorligi oshadi.

Taqdimotda soha n raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish masalalariga alohida o'txalib o'tildi.

(Davomi 2-betda).

YANGI O'ZBEKISTON FENOMENI XORIJLIK ADIB NIGOHIDA



Shu o'rinda, joriy yilning 11-dekabr kuni poytaxtimizda ayni shu kitobning taqdimot marosimi o'tkazilishi ham mamlakatimiz intellektual hayotida muhim madaniy voqea sifatida katta qiziqish uyg'otishi shubhasiz.

Mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yurtimiz

Yaqin-yaqingacha Pokistonning taniqli jurnalisti, teran fikrli faylasuf va mahoratli yozuvchisi Muhammad Abbos Xon bilan shaxsan tanishish imkonini bo'lmagan. Ammo shunga qaramay uning shaxsiyati hamda dunyoqarashi bizga begona emasdi. Rus va o'zbek tillariga o'g'irilgan asarlari, shuningdek, xalqaro maydonda e'tirof etilgan, aniq tahlil hamda kuzatuvlarga boy siyosiy-ijtimoiy maqolalari orqali biz yozuvchi bilan uzoqdan muloqot qilib kelamiz, go'yo.

Darvoqe, Islomobodda bir qator yuksak fikrlar va ilhomlar uyg'otgan taqdimot tadbirining guvohi bo'ldim. Unda yozuvchining xalqimiz tarixi, bugungi taraqqiyoti hamda kelajakka oid ulg'ayayotgan orzu-umidlarini yorqin aks ettirgan "O'zbekiston: uchinchi Renessans — taraqqiyot konsepti" nomli badiiy-publitsistik asari keng ommaga taqdim qilindi. Tadbir jarayoni ham, asar mazmuni ham kitobxonda alohida taassurot qoldirdi.

Mutolaa

bo'ylab amalga oshirilayotgan keng ko'lami hamda fundamental islohotlar salobatini, ehtimol, biz har doim ham ushbu ulug'vor jarayonlarning ichida yashab turib ham to'liq anglab yetolmasmiz. Biroq Vatanimiz kecha va buguniga chetdan nazar tashlash imkoniga ega bo'lgan xorijlik jurnalistlar, ayniqsa, tahlili hamda qalami o'tkir ziyolilar fikri biz uchun g'oyat qimmatli. Chunki

ular o'zgarishlarning miqyosi va mohiyatiga his-tuyg'ular emas, balki eng xolis mezon — aniq raqamlar, mantiqiy xulosalar hamda chuqur tahlillar orqali baho berishadi. Muhammad Abbos Xonning asari ham shu jihati bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali biz o'z yo'limizni boshqa bir nufuzli ziyoli nazaridan ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



HAYOTBAXSH O'ZGARISHLARNI AKS ETTIRGAN FUNDAMENTAL ASAR

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida taniqli siyosatshunos, senator va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqovning "Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li" kitobining ingliz tilidagi nashri taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda davlat idoralari, diplomatik korpus vakillari, ilmiy doiralar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Taqdimot

Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

yangradi. Oliy Majlis Senati Raisining

PARAGVAY PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN O'ZBEKISTONDA BO'LADI

Paragvay Respublikasi Prezidenti Santyago Penya 11 — 13-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkentda bo'lib o'tadigan oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston bilan Paragvay o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish

rejalashtirilgan.

Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va kimyo sanoati, raqamlashtirish, turizm hamda sport sohalarida amaliy sheriklikni o'rnatishga alohida e'tibor qaratiladi.

Paragvay yetakchisi, shuningdek,

Xalqaro avtomobil federatsiyasi Bosh assambleyasida va federatsiya shafeligida o'tkaziladigan musobaqalar g'oliblarini taqdirlash marosimida ishtirok etadi.

O'ZA.



ERISHILGAN YUTUQLAR VA USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMASI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ning O'zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fudzii xonim bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Unda O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami va izchil islohotlar, ayniqsa, ayollarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash hamda ijtimoiy sohalaridagi yutuqlar muhokama qilindi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida

mamlakatimiz Bojxona qo'mitasida gender standartlar joriy etilgani va "Kumush gender mukofoti"ga sazovor bo'lgani qayd etildi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida Prezidentimiz olib borayotgan siyosatning samaradorligi e'tirof etilib, davlat xizmatchilarini tayyorlash va shaffoflikni oshirish, shuningdek, mahalliy

organlarda hisobdorlikni kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan fikr almashildi.

Suhbat yakunida hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida hududlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning jamiyatdagi ishtirokini faollashtirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Senat qo'mitalarida

IQTISODIY TARAQQIYOT YO'LIDAGI TO'SIQ

Kecha Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi majlisida bir qator qonunlar, xususan, 2026-yilda "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Qo'mita majlisida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2026-yilda "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar dasturi loyihasi taqdimot qilindi. Dasturda soliq madaniyatini oshirish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida shaffoflikni kuchaytirish, raqamli nazoratni keng joriy etish, soliq va bojxona ma'muriyatini takomillashtirish kabi 8 ta ustuvor yo'nalish belgilangan.

"Yashirin iqtisodiyot" – rasman qayd etilmagan va soliq organlaridan yashirin iqtisodiy faoliyatlar majmuasi. U bir qator omillar tufayli vujudga keladi va natijada Davlat byudjetiga tushumni kamaytirib, raqobat muhitini buzadi. Shuningdek, aholi huquqiy himoyadan mahrum bo'ladi (pensiya, mehnat daftarchasi va h.k.) hamda iqtisodiy statistika noto'g'ri shakllanadi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida "yashirin iqtisodiyot" ulushi yalpi ichki mahsulotga nisbatan sezilarli darajada qisqargan. Joriy yilning o'tgan oyilarida mazkur keskinlikning pasayishi kuzatilgan.

Shu bilan birga, majlisda Soliq qo'mitasi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham ko'rib chiqildi. Xususan, soliq organlarida joriy etilgan korxonabay va mahallabay tizimlari orqali 55,7 mingta tadbirkorlik subyektingin faoliyati qonuniylashtirilgan, 72,1 mingta korxonada 111,7 mingdan ortiq xodimlar bilan mehnat shartnomalari rasmiylashtirilib, byudjetga qo'shimcha

daromad solig'i tushumlari ta'minlangan.

Qurilish sohasida "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimining keng joriy qilingani va uning mehnat munosabatlari tizimi bilan integratsiyasi natijasida qurilish-pudrat tashkilotlarida ish haqi mablag'larining keskin oshgani qayd etilgan. Bunda 2024-yildagi 602,7 mlrd. so'mlik soliq hisoblangan ish haqi hajmi 2025-yilda 7,1 trln. so'mga yetgani alohida ta'kidlandi.

Muhokama jarayonida yuzaga kelayotgan ayrim muammo va kamchiliklarga ham e'tibor qaratildi.

Jumladan, ba'zi korxonalarda xodimlar sonini yashirish, eng kam ish haqidin ham past maosh rasmiylashtirish, ustav jamg'armasi orqali soliqdan qochish kabi holatlar hali ham uchrayotgani ta'kidlandi. Qurilish sohasida korrupsiya xavflarini kamaytirish, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, "konvert" usulida to'lanadigan ish haqining oldini olish choralari muhokama qilindi.

Ishtirokchilar raqamlashtirish jarayonlarini yanada tezlashtirish, soliq to'lovchilar bilan hisob-kitob qilish tizimini soddalashtirish, tadbirkorlarga ko'maklashish va QQSni qaytarish tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni bildirdi.

Shuningdek, ayni qo'mitaning kecha bo'lib o'tgan yana bir yig'ilishida "Byudjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun

ham muhokama etildi.

Qizg'in tortishuvlarda qo'mita a'zolari so'nggi yillarda fuqarolarni byudjet jarayoniga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish orqali byudjet mablag'larini taqsimlashda shaffoflikni ta'minlash, ularning maqsadli sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganini qayd etdi.

Muhokama qilinayotgan qonun bilan Ma'muriy javobgarlik, Byudjet va Fuqarolik kodekslari hamda boshqa qator qonunlarga byudjet jarayonini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Xususan, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida byudjet hisoboti turlari kengaytirilyapti. Shu bilan birga, birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning mas'uliyatini oshirish maqsadida byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni Qonunchilik palatasi qo'mitalarida har chorak yakunida eshitib borish amaliyotini joriy etish ham ko'zda tutilmoqda.

Qo'mita a'zolari mazkur qonun fuqarolarni byudjet jarayoniga keng jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, byudjet mablag'larini taqsimlashda shaffoflikni ta'minlash va ularning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga qaratilganini alohida ta'kidladi.

Muhokamalar yakunida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qo'mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

TENG VA ADOLATLI RAQOBAT MUHITINI YARATISHGA QARATILGAN QONUN

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisida "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonun qo'mita a'zolari, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, mahalliy Kengash deputatlari ishtirokida dastlabki tarzda muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, kelgusi yil Davlat byudjetida aholi turmush darajasini yaxshilash, xalq farovonligini yuksaltirish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy soha maqsadlariga ustuvorlik berilgan holda, Davlat byudjeti xarajatlarning qariyb 55 foizi yoki 220,1 trln. so'mi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda.

Shuningdek, qonunda 2026-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 515,8 trln. so'm, xarajatlari esa 567,6 trln. so'm miqdorida shakllantirilgan. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshmasligi nazarda tutilgan.

Kelgusi yilda qishloq xo'jaligiga 3,4 trln. so'm, suv xo'jaligiga qariyb 10 trln. so'm hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga 908,6 mlrd. so'm ajratilayotgani alohida qayd etildi.

Qonun bilan nasos stansiyalarida energiya tejamlor uskunalarini o'rnatish tadbirlariga sarflanadigan

xarajatlari uchun 65 mlrd. so'm hamda qishloq xo'jaligida suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish uchun 250 mlrd. so'm subsiyida ajratilishi nazarda tutilmoqda. Bu, o'z navbatida, kelgusi yilda suv resurslaridan oqilona foydalanishga hamda yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qonunda yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritish bo'yicha irrigatsiya-mellioratsiya tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari uchun 50 mlrd. so'm ajratilishi nazarda tutilmoqda.

Ta'kidlanganidek, ushbu qonun qishloq va suv xo'jaligi hamda ekologiya sohalarida ustuvor etib belgilangan vazifalarni bajarish, ijtimoiy muammolarni hal qilish hamda tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama rag'batlantirishga, teng va adolatli raqobat muhitini yaratishga qaratilgan.

Muhokama yakuni bo'yicha qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Xalqaro anjuman

PARLAMENTLARARO ALOQALAR YANADA KENGAYADI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi A. Eshmuratov Boku shahrida "Haydar Aliyev – suveren Ozarbayjonning Konstitutsiyasi va parlamentarizm asoschisi" mavzuida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.

Tadbir Ozarbayjon Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligi va Milliy Mejlis tashkil etilganining 107-yilligiga bag'ishlandi.

Anjuman davomida Haydar Aliyevning Ozarbayjon davlatчилиgini mustahkamlash borasidagi xizmatlari, Konstitutsiyaning mamlakat huquqiy va institutsional rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi

strategik sheriklik izchil rivojlanayotgani, parlamentlararo muloqot va tajriba almashish mexanizmlarini yanada mustahkamlash bo'yicha ikki tomonlama intilishlar yuqori baholandi.

Tadbir doirasida delegatsiya a'zolari Ozarbayjon Respublikasi Milliy Mejlisi Raisining o'rinbosari Ziyafet Askerov bilan uchrashdi.

"Xalq so'zi".

Kun tartibida – ichki turizmni rivojlantirish masalalari

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlarga bag'ishlangan seminar tashkil qildi.

Seminar

Unda senatorlar, Turizm qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi rahbariyati, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari raislari, hududiy turizm bo'limlari rahbarlari, ekspertlar hamda ommaaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Seminarda Buxoro viloyati misolida sayyohlar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, turistik infratuzilmani rivojlantirish, ichki turizm salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar atroficha muhokama qilindi. Turistik xizmatlar sifatini yaxshilash, raqamli yechimlarni joriy etish, yangi loyihalarni amalga oshirish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Shuningdek, viloyat hududida ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, tuman va mahalla kesimida ziyorat turizmi xizmatlarini

kengaytirish, madaniy meros obyektlarini ommalashtirish va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar yuzasidan taqdimot bo'lib o'tdi. Seminar davomida mamlakatimizda turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar, xizmatlarni raqamlashtirish jarayonlari, mehmonxona va transport logistikasi yo'nalishidagi yangi loyihalar, shuningdek, sohadagi kelgusi ustuvor vazifalar haqida axborot berildi.

Hududlar kesimida ichki turizmni jadal rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, turistik salohiyatdan samarali foydalanish, hududlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish bo'yicha aniq taklif va vazifalar belgilab olindi.

Yakunda ichki turizmni rivojlantirish, mahalliy sayyohlar oqimini oshirish hamda sohada tashkiliy-amaliy hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli tavsiyalar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

MILLIY YUKSALISHNING ASOSIY USTUNI

Bugungi global iqtisodiy o'zgarishlar davrida O'zbekiston o'zining milliy agrar siyosatini tubdan yangilab, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish, bozor mexanizmlarini kuchaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda.

Aks sado

Xususan, ekin maydonlarini diversifikatsiya qilish, klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirish, eksportbog hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish agrar sohaning yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi. Natijada bugunga kelib qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotidagi eng muhim tarmoqlardan biri sifatida aholi bandligini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, milliy eksport hajmini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda beqiyos o'ringa ega bo'ladi.

Hozirda yurtimizda 3,5 mln. nafar aholi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2024-yil yakuni bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 19,2 foizni tashkil etdi. Bu esa ushbu soha nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki aholi bandligini oshirish va eksport orqali valyuta tushumlarini ko'paytirishda ham muhim rol o'ynayotganini anglatadi. Qolaversa, paxtachilikda ilm-fan yutuqlari va ilg'or agrotexnologiya olib kirilgani, yuqori unumdor xorijiy navlar ekilgani hisobiga joriy yil dehqon va fermerlarimiz tomonidan 875 ming gektar yerda 4 mln. tonnaga yaqin xirmon uydi.

Shu bilan birga, joriy yil 3 mingdan ziyod fermerlar gektardan o'tacha 50 – 60 sentnerlik, 1,5 mingi 70 sentnerlik marradan o'tib, paxtachilikda o'zining tajriba maktabini yaratdi. G'allakorlarimiz ham yangi mahalliy navlar va biotexnologiya orqali bu yil 8 mln. 400 ming tonna hosil oldi.

E'tiborlisi, ushbu yuksak ko'rsatkichlar xalqaro darajada ham e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston 2024-yilda Global ochlik indeksi bo'yicha 127 ta davlat orasida 5 dan past ball to'plab, 22-o'rinni egalladi va mintaqada yetakchi mamlakat sifatida qayt etildi. Bu mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan siyosat va amaliy chora-tadbirlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Endilikda Prezident tashabbusi bilan Agrosanoatni rivojlantirish jamg'armasidan intensiv bog' tashkil qilish uchun 7 yilga 3 yillik imtiyozli davr bilan 14 foizli kredit beriladi. Tadbirkorlik kompaniyasi tomonidan

muzlatkichli ombor uchun kredit foizining asosiy stavkadan oshgan 8 foizgacha qismi qoplanadi. Savdoni rivojlantirish kompaniyasi sabzavot eksportchilari va bog'bonlarga qadoqlash xarajatining 50 foizini kompensatsiya qilish kabi iqtisodiy qo'llab-quvvatlashlari yaqin vaqt ichida soha taraqqiyotida yanada yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi.

Shu o'rinda aytilish joizki, bugungi kunda O'zbekiston 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini 80 dan ziyod mamlakatlarga eksport qilmoqda. Bu esa milliy agrosanoat mahsulotlariga bo'lgan xalqaro talab ortib borayotganini, ayni chog'da, O'zbekistonning jahon oziq-ovqat bozorida mavqei bosqichma-bosqich mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Albatta, qishloq xo'jaligi rivojida qabul qilingan strategiya, davlat dasturlari hamda sohaga oid qonunchilik hujjatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, joriy yilda imzolangan "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun O'zbekistondagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sohaga aloqador huquqiy munosabatlarning asosini mustahkamlashda muhim qadam hisoblanadi. Ushbu hujjat, o'z navbatida, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi nazoratini kuchaytirishga, barqaror rivojlanishni ta'minlashga va milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat tarmog'ining o'rini mustahkamlashga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Qishloq xo'jaligi sohasi davlatimiz rahbarining alohida e'tiboridagi masala hisoblanadi. Buni kuni kecha Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh soha fidoyilarining taqdirlanishi hamda Ko'saroy qarorgohida soha faollari bilan o'tkazilgan ochiq muloqot misolida ham ko'rish mumkin.

O'z navbatida, mazkur sohada tegishli islohotlarni jadallashtirish, albatta, kelgusida mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Dilrabo XOLBOYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

"Hukumat soati"



QURILISH TARMOG'I MODERNIZATSIYASI BO'YICHA QANDAY ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi. Unda "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masala muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlarning savollariga Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sherzod Hidayatov javob berdi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimizning 2020-yil 27-noyabrda Farmoni bilan tasdiqlangan Strategiya ijrosi doirasida vazirlik tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, uning bajarilishi yuzasidan Chora-tadbirlar rejası tasdiqlanib, har bir yo'nalishda mas'ullar belgilangan va hozirga qadar bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ijrosi deyarli to'liq ta'minlangan.

Vazirning ma'lum qilishicha, bugungi kunga qadar jami 439 ta bosh reja ishlab chiqilgan. Shundan, 119 tasi shahar va 314 tasi shaharcha bosh rejası, 1 776 tasi qishloq aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari sanaladi. Shuningdek, 108 ta qishloqni rivojlantirish sxemalari ishlab chiqilib, viloyatlar jamoatchilik va hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari muhokamasidan o'tkazilgan.

Vazirlikning hududiy boshqarmalari esa 7 turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatmoqda. 2025-yilda 353 085 ta obyekt bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatilgan. Shu bilan birga, vazirlikning 120 ga yaqin funksiya va vazifalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi baholalanib, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan funksiyalar bo'yicha reestr shakllantirilgan holda ularni bartaraf etish bo'yicha dastur tasdiqlangan.

Maqsadli davlat dasturlari doirasida yangidan qurish, rekonstruksiya va mukammal ta'mirlanishi rejalashtirilgan obyektlarning loyiha hujjatlarini sifati ishlab chiqish maqsadida "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida loyiha tashkilotlari elektron reyting baholash platformasi tashkil etilgan. Elektron reyting tizimi ishga tushirilgandan keyin korxonalarning aylanma mablag'ları 41 trln. so'mga, maxsus texnikalar soni 2 barobarga, band bo'lgan aholi soni esa 58 foizga ortgan.

"Hukumat soati"da ekologik xavfsizlik va energiya tejamlorlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar xususida ham to'xtalib o'tildi.

Vazirning aytishicha, mamlakatimizda so'nggi yillarda qurilish jarayonlarida ekologik talablar tomonidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yaqinda qabul qilingan tartibga ko'ra, yirik qurilish obyektlarida chang chiqishini kamaytirish uchun maxsus suv purkagichlar va changni ushlovchi quurilmalar majburiy o'rnatiladigan bo'ladi.

Shuningdek, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida ko'p kvartirali uylarni energiya tejovchi materiallar bilan qoplash, issiqlik ta'minotini yaxshilash yuzasidan keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida markazlashgan issiqlik ta'minoti qamrovini 36 dan 70 foizgacha yetkazish, tizimdagi yo'qotishlarni esa 38 dan 12 foizgacha qisqartirishga erishiladi.

2025 – 2029-yillar davomida jami 14 mingga yaqin individual issiqlik punktlari o'rnatish orqali 16 mingdan ortiq ko'p qavatli uylarning issiqlik ta'minoti tizimi ochiq tizimdan "yopiq tizim"ga o'tkazilishi natijasida 34 mln. metr kub tabiiy gaz va 15 mln. kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qilishga erishiladi.

Deputatlar shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati bilan ham qiziqdi.

Vazirning aytishicha, davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni bilan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzurida Kompetensiyani rivojlantirish instituti tashkil etilgan. Unda 12 ta turdagi yo'nalishda hozirgi kunga qadar shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi bo'yicha umumiy 13 ming nafardan ortiq mutaxassis o'qitilgan. Jumladan, suv yilning 11 oyida 6 833 nafar mutaxassis o'quv kurslariga jalb etilgan.

Institutda o'quv jarayonini raqamlashtirish, inson omili ishtirokini kamaytirish maqsadida shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi mutaxassislarning o'qish uchun ariza topshirish, shartnomani rasmiylashtirish va to'lovni amalga oshirish ishları, yakuniy testdan muvaffaqiyatli o'tganda sertifikatni yuklab olishi "sert.mcu.uz" axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

"Hukumat soati"da deputatlar qurilish sohasida davlat xizmatlarini raqamlashtirishni jadallashtirish, inson omilini va byurokratik to'siqlarni yanada kamaytirish, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimini yanada takomillashtirish, aholi punktlarining bosh reja loyihalarini ishlab chiqish jarayonlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil hududlarni belgilash, jamoatchilik muhokamasini o'tkazish bo'yicha amaldagi me'yor va talablarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Shu bilan birga, xalq vakillari tomonidan qurilish bilan bog'liq jarayonlarda sun'iy intellekti qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish, sohadagi hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, qurilishda atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi.

"Hukumat soati"da deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan bir qator takliflar berildi va kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

ORTGA QAYTMAS ISHONCHLI ISLOHOTLAR

Aksariyat xalqaro ekspertlar va xorijiy siyosatchilar fikriga ko'ra, bugun O'zbekiston o'zining misli ko'rilmagan ochiqligi va jadalligi bilan ajralib turgan izchil, aniq hamda konstruktiv siyosatni olib bormoqda. Bu, ayniqsa, dunyoning yetakchi mamlakati – AQSh bilan munosabatlarda ham namoyon bo'lmoqda.

AQSh Prezidenti Donald Tramp O'zbekiston rahbarini Oq uyda Markaziy Osiyo va AQSh davlat rahbarlarining (C5+1) sammitiga taklif etgani ham bejiz emas. Chunki dunyoning eng qudratli mamlakati – AQSh O'zbekistonning shiddatli, ortga qaytmas islohotlariga ishonadi.

NUQTAI NAZAR

Diplomatlar fikricha...

Darhaqiqat, o'tgan bir necha yil davomida ikki mamlakat savdo va sarmoyaviy aloqalarni mustahkamlash, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, mintaqaviy muammolarni hal etishda hamkorlik qilish kabi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi.

AQSh tomonidan Markaziy Osiyo – AQSh hamkorligiga oid “C5+1” formatining 2016-yilda tashkil etilishi va o'sha yili Samarqandda AQSh Davlat kotibi Jon Kerri hamda Markaziy Osiyoning besh mamlakati tashqi ishlar vazirlari ishtirokida uchrashuv o'tkazilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Bu platforma orqali AQSh o'zining mintaqaga nisbatan siyosatini tushuntiradi, Markaziy Osiyo hukumatlari pozitsiyalari bilan tanishadi, o'zaro fikr almashiladi. AQSh “C5+1” orqali Markaziy Osiyoning har bir davlati mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini quvvatlab, ularni birdamlikka chorlab keladi. Ushbu platforma mintaqada hamda har bir respublika tinch, farovon va erkin yashashi uchun xizmat qiladi.

AQSh diplomatlari fikricha, O'zbekiston yildan-yilga rivojlanib bormoqda va katta yo'lni bosib o'tdi. U mustaqil va o'z davlat tizimiga ega. Amerika bilan hamkorlik O'zbekistonni global moliya bozoriga olib chiqadi. Innovatsiyalar, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va boshqa yo'nalishlarda hamkorlik yanada mustahkamlanmoqda.

Negaki, bugungi zamonaviy dunyoda xomashyo, konchilik, neft va gazga tayanib yashash bilan iqtisodiyotni rivojlantirish qiyin. Hamma ham borada muvaffaqiyat qozongan emas. Tabiiy boyligiga tayangan ayrim davlatlar boy, ayrimlari esa qashshoq. Inson kapitaliga sarmoya yo'llash haqida ko'proq o'yash kerak. AQSh esa ilm-fan, texnologiya, ta'lim bobida ulkan yordam ko'rsata oladi.



AQSh serqirra hamkorlik qiladi, o'z manfaatlarini va maqsadlariga qarab ish tutadi. O'zaro manfaatlar nimada? Manfaatlari qay nuqtada uchrashadi? Albatta, har ikki tomon bir masalani birdek ko'rishi va baholay olishi juda qiyin. Hozir O'zbekiston xalqaro miqyosda ochiq va erkin jamiyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Amerika inson huquqlariga rioya etgan, inson qadriini ulug'laydigan mamlakatlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi. O'zbekiston haqiqatan shunday jamiyatga aylanishi uchun Amerika har qanday yordamni ko'rsatmoqchi. Amerikaliklar nazarda O'zbekiston yetakchisi yanada ko'proq ishlarga, kattaroq qadamlarni qo'yishga qodir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning dunyoning yetakchi mamlakati bilan munosabatlari jadal va o'zaro manfaatdorlik asosida rivojlanmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil may oyida Vashingtonga rasmiy tashrifi AQSh bilan o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Sa'y-harakatlar hamkorlikning o'zaro manfaatli sohalarni rivojlantirishga yo'naltirildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy baholandi va qo'llab-quvvatlandi. Bu O'zbekistonning reytingi va xalqaro imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'p qirrali hamkorlik samaralari

So'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi ikki baravar oshdi. Amerikalik sayyohlarning O'zbekistonga oqimi esa 50 foizga ko'paydi. AQSh Kongressida nufuzli

“O'zbekiston bo'yicha kokus”, ya'ni respublikaning norasmiy do'stlari guruhini tuzildi. Toshkentda keng qamrovli, jumladan, marketing va tadbirkorlik, kompyuter fanlari, mediaindustriya, sog'liqni saqlash boshqaruvi kabi akademik dasturlarni o'z ichiga olgan Vebster universitetining filiali ochildi.

Tabiiyki, AQSh O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan manfaatli munosabatlarni mustahkamlashdan manfaatdor. AQShning O'zbekistondagi elchisi Jonatan Henik rasman shu lavozimga kirishishdan oldin mamlakat Senatida so'zlagan nutqida aytganidek, O'zbekiston – Markaziy Osiyoning yuragi va AQShning kuchli sherigi.

Elchi Toshkent bilan hamkorlikning ta'sirini butun mintaqaga, shuningdek, Yevroosiyo va hatto Hind hamda Tinch okeanlari hududlaridagi mamlakatlari bilan ham bog'lab, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi dinamik mamlakat ekanini, 2016-yilda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar e'lon qilinganidan beri AQSh ularni olqishlab kelayotganini

“AQSh diplomatlari fikricha, O'zbekiston yildan-yilga rivojlanib bormoqda va katta yo'lni bosib o'tdi. U mustaqil va o'z davlat tizimiga ega. Amerika bilan hamkorlik O'zbekistonni global moliya bozoriga olib chiqadi. Innovatsiyalar, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va boshqa yo'nalishlarda hamkorlik yanada mustahkamlanmoqda.”

ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, O'zbekistondagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashini, inson huquqlari va demokratik boshqaruv yo'lidagi islohotlarda va iqtisodiy taraqqiyotda O'zbekiston bilan sherikligini ma'lum qiladi. Almashinuv dasturlari, ta'lim va ilm-fan bo'yicha hamkorlik, fuqaro jamiyatini rivojlantirishni muhim yo'nalishlar sirasiga kiritish mumkin.

AQSh xotin-qizlar, gender tengligi masalasida O'zbekiston bilan ishlashga tayyor. Toshkent hamda Vashington iqlimdagis salbiy o'zgarishlarga qarshi choralar ko'rishda, muqobil energiya va “yashil” iqtisodiyotni yo'lga qo'yishda ham birga ishlamoqda. Ikki tomonlama hamda mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, huquq-tartibot va kontrterrorizm sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish ham mamlakatalrimiz munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Kuzatuvchilar fikricha, ayni damda

AQSh va O'zbekiston qator muhim strategik muammolar bilan ayni pozitsiyada yuzlashmoqda. Xalqaro terrorizm haqida gapiradigan bo'lsak, bu tahdidga qarshi kurashda o'xshash qarashlar mavjud.

2021-yili Afg'onistonda sodir bo'lgan voqealardan keyin, ya'ni avgust oyida Amerika qo'shinlarining Afg'onistondan shoshilinch ravishda chiqib ketishidan keyin Markaziy Osiyo uchun xavfsizlik muammolari qaysidir ma'noda kuchaydi hamda AQSh va O'zbekiston bu muammolarga qarshi kurashda umumiy pozitsiyaga ega. “Umumiy pozitsiya” deganda, kuchaygan tahdidlarga qarshi kurashish taktikasi nazarda tutiladi, biroq davlatlar radikal unsurlarning Markaziy Osiyoga kirib kelishini yoki umuman radikalizmning dunyo bo'ylab tarqalishini istamaydi. Shu ma'noda, AQSh O'zbekistonga Markaziy Osiyodagi barqarorlik omili sifatida, ya'ni Afg'onistondan radikal, terrorchi harakatlarning Markaziy Osiyoga tarqalishining oldini oluvchi qalqon sifatida qaraydi.

Uzviylikni bog'lovchi hujjat

E'tibor berilsa, O'zbekiston – AQSh munosabatlari doirasidagi barcha yo'nalishlarda sifat jihatdan yangi va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishni belgilab bergan asosiy hujjat, bu – ikki mamlakat o'rtasida 2002-yil mart oyida imzolangan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi Deklaratsiya hisoblanadi. Ikki tomonlama hamkorlikni uzviylashtirish hamda qayd etilgan kelishuvlarni o'z vaqtida bajarish

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi tashqi siyosatda AQSh alohida o'rin tutadi. O'zaro hurmat hamda bir-birining milliy manfaatlarini inobatga olishga asoslangan hamkorlik bundan keyin ham mustahkamlanib boraveradi. Zotan, amerikaliklar O'zbekiston tanlagan islohotlar va istiqbol yo'lga ishonishadi.

Bahodir HASANOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.

Tadbir

MAQSAD —
NARKOJINOYATCHILIKNING
OLDINI OLISH

Samarqand shahrida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi – MOMAMMga a'zo davlatlar Milliy muvofiqlashtiruvchilari kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

“MOMAMM 2.0: Mintaqada xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashda tashkilot salohiyatini oshirish” mavzuida o'tkazilgan tadbirida markaz kotibiyati hamda BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining Afg'oniston, Markaziy Osiyo, Eron va Pokistondagi mintaqaviy vakolatxonasi vakillari qatnashdi.

Yig'ilishning keng doirada o'tgan qismida Markaziy Osiyo mamlakatlariidagi joriy narkovaziyat hamda hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha takliflar taqdim etildi. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi, AQSh Davlat departamentining Narkotiklarga qarshi kurash va huquqni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro byurosi, Afg'oniston elchixonasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti vakillari ham o'z ma'ruzalari bilan chiqish qildi. O'zbekistonda 2025-2026-yillarga mo'ljallangan “Giyohvandlikka qarshi kurash va narkojinoyatchilikning oldini olish bo'yicha” Milliy dastur taqdimoti bo'lib o'tdi.

Anjuman yakuni yuzasidan Markaziy Osiyo davlatlari va ular hamkorlarining giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan Qo'shma deklaratsiya qabul qilindi.

Tor doiradagi yig'ilishda MOMAMM faoliyatini takomillashtirish va uning institutsional salohiyatini oshirish, 2026-yil uchun tadbirlar rejasini tasdiqlash, tashkilot byudjetini shakllantirish va hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha alohida takliflar muhokama qilindi.

Tadbirda ta'kidlanishicha, markaz o'z faoliyati davomida 85 dan ortiq narkotiklarga qarshi, jumladan, xalqaro nazorat ostidagi yetkazib berish operatsiyalarini muvofiqlashtirgan. Natijada 7,5 tonnadan ortiq narkotiklar musodara qilindi, 62 tonnadan ziyod prekursorlarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yildi va 122 nafar uyushgan jinoyatchilik guruhlari yetakchilari qo'lga olindi. Ushbu natijalar MOMAMMning narkotiklar savdosiga qarshi kurashda muhim mintaqaviy muvofiqlashtirish mexanizmi sifatidagi samaradorligini aniq namoyon etadi.

Shu bilan birga, sintetik narkotiklar xavfining ortib borayotganini hisobga olgan holda markaz BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi bilan hamkorlikda yangi psixofaol moddalar paydo bo'lishi to'g'risida mintaqaviy “erta ogohlantirish tizimi”ni joriy etish bo'yicha ish olib bormoqda. Ushbu tizim yangi narko-tahdidlarni tezkor aniqlash va oldini olish imkonini beradi.

“Xalq so'zi”.

PEKJAMA

TANLOVDA QATNASHISH ISTAGINI BILDIRGAN
YURIDIK SHAXSLAR DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-martdagi hamda 2022-yil 25-iyuldagi qarorlariga asosan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining bo'sh suv havzalari uchastkalari tanlov asosida ijaraga berilishi ma'lum qilinadi.

Tanlov tashkilotchisi: “Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi” MCHJ.

Manzil: Jizzax viloyati, Arnasoy tumani, G'oliblar shaharchasi.

Telefonlar: 94-347-62-27, 99-771-57-55, 93-295-99-90, 93-303-44-28.

Elektron pochta: aydarkol@umail.uz

Tanlov predmeti: Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv havzasidagi **213,9 ming** gektar bo'lgan jami **106 ta lotni** baliq ovlash xo'jaliklariga sanoat baliq ovlashni amalga oshirish uchun **10 (o'n) yil** muddatga ochiq tanlov asosida ijaraga berish.

Talabgorlar tanlov haqidagi batafsil ma'lumotlarni “Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ” MCHJdan olishi mumkin.

Talabgorlardan arizani ko'rib chiqish uchun BHMning uchdan bir baravari miqdorida to'lov undiriladi. Ushbu mablag'lar jamiyat bank hisob raqamiga tushadi va tanlovni tayyorlash hamda o'tkazishga ishlatiladi. Buyurtmanomani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan to'lovlar qaytarilmaydi.

Bundan tashqari, talabgordan suv havzasi uchastkasi uchun belgilangan yillik ijara haqining 30 foizi miqdorida to'lov (garov puli) undiriladi. Ushbu mablag'lar jamiyatning bank hisob raqamiga tushadi va tanlov g'olibining dastlabki to'lovi sifatida hisob-kitob qilinadi. Tanlovda g'olib bo'la olmagan talabgorning ushbu to'lovi qaytariladi.

“Trast bank” XAB Jizzax viloyati filiali h/r 2021 0000 9007 4754 5001;
MFO: 00491; STIR: 304 741 887;
“Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi” MCHJ.

To'lov maqsadi: “tanlovda ishtirok etish uchun to'lov”.

Tanlovda qatnashish uchun talabgor yoki uning vakili shaxsan yoxud pochta orqali buyurtma xat bilan, arizani ikki nusxada, ko'rib chiqish uchun to'lovning to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjati bilan birga 2 ta muhrlangan konvertida (ASLI va NUSXASI) quyidagi hujjatlarni “Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi” MCHJga taqdim etishi lozim:

1. Ko'rib chiqish uchun to'lovning to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatlari (BHMning uchdan bir baravari miqdorida to'langanligini tasdiqlovchi);

2. Korxona guvohnomasi va ustavi (nizom) nusxasi;

3. Korxona rahbari pasport nusxasi, rahbarlikka tayinlanganligi to'g'risida buyruq, korxonada mavjud ishchi xodimlar ro'yxati (pasport nusxalari ilova qilingan holda);

4. Baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-reja;

4.1. Biznes-rejada quyidagi asosiy qoidalar aks ettirilishi lozim:

– bir yilda o'rta ovlashni kutilayotgan miqdor;

– iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari haqidagi ma'lumotlar;

– kiritilishi kutilayotgan investitsiya miqdori va sohasi;

– baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-rejaning moliyalashtirish manbalari (talabgorning o'z mablag'lari hisobiga, kreditlar

va hokazo) bilan ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotlar;
– tashkil etiladigan ish o'rinlar soni;
– xodimlar shtatining tajribali baliqchilar, ixtiologlar, boshqa mutaxassis va ekspertlar bilan to'ldirilganligi;

5. Korxona balansidagi yoki aynan korxona rahbari nomidagi baliq ovlash va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun moddiy-texnika vositalari (rusumi ko'rsatilgan qayiqlar va motorli qayiqlar, avtotransport vositalari, ovlash qurollari, baliq va baliq mahsulotlarini saqlash uchun sovitish uskunalari va hokazo)ning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;

6. Talabgor korxonaning umumiy va baliqchilik sohasidagi faoliyati davriga oid ma'lumot. Xususan, baliqchilik sohasidagi muqaddam ish olib borgan va bugungi kunda jamiyat uning huquqiy vorisi hisoblangan “Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi direksiyasi” DUK bilan shartnoma asosida faoliyat yuritganligi, shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajargan-bajarmaganligi, ijara shartnoma bo'yicha qarzdorligi mavjudligi;

7. Korxona balansi (o'tgan yil yakuni yoki joriy yil yakunlangan choragi bo'yicha), ya'ni o'z mablag'lari va moliyaviy holatlari to'g'risida

Talabgorlarning tanlov takliflari joylashgan konvertlar:

2026-yil **12-yanvar** kuni soat 10.00 da Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Beshquvur ko'chasi, **56-uyda** joylashgan Sirdaryo – Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'muriy binosida ochiladi.

Tanlovga oid hujjatlar tanlov o'tkazilishi haqida e'lon berilgan sanadan boshlab o'ttizi kun davomida, ya'ni 2026-yil 9-yanvar kuni soat 18.00 ga qadar jamiyat ma'muriy binosida qabul qilinadi.

ma'lumot;

8. Talabgorning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlari kompleksi.

Talabgordan yuqorida ko'zda tutilmagan hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun qiziqish bildirgan yuridik shaxslar jamiyatdan quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarni olishi mumkin:

1. Tanlovda qatnashish shartlari, Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan hujjat va ma'lumotlar ro'yxati;

2. Tanlovga qo'yilgan suv havzasi uchastkalariga oid ma'lumotlar:

– suv havzasi uchastkasi (konturi)ning raqami;

– suv havzasi uchastkasining joylashgan koordinatlari;

– suv havzasi uchastkasining maydoni;

– suv havzasi uchastkasining xarita-sxemasi;

– suv havzasi uchastkasining o'rta baliq mahsuldorligi;

– suv havzasi uchastkasining yillik ijara haqi miqdori.

3. “Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi” uchastkalarini baliq ovlash xo'jaliklariga baliq yetishtirish va ovlash uchun ijaraga berish shartnoma loyihasi bilan jamiyatda tanishishi mumkin.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohbunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6